



UDK: 378.014.15

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING SUGGESTIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СУГГЕСТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ****PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING SUGGESTIVE COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS****Raxmonova Ruqiya Zuxriddinovna**

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining suggestiv kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining suggestiv kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining suggestiv kompetentligini rivojlantirishning samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining suggestiv kompetentligini rivojlantirishning metodologik jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития suggestивной компетентности будущих учителей начальных классов, методическая система развития suggestивной компетентности будущих учителей начальных классов, эффективность развития suggestивной компетентности будущих учителей начальных классов. Также анализируются педагогические основы развития suggestивной компетентности будущих учителей начальных классов.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing suggestive competence of future primary school teachers, the methodological system of developing suggestive competence of future primary school teachers, the effectiveness of developing suggestive competence of future primary school teachers. The pedagogical foundations of developing suggestive competence of future primary school teachers are also analyzed.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, suggestiv kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash.

Ключевые слова: начальное образование, suggestивная компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка.

Key words: primary education, suggestive competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, assessment.

KIRISH

Jahonda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirish, pedagogik-psixologik qobiliyatlarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa rivojlangan davlatlarda bo'lajak pedagoglarda suggestivlikni, ya'ni ruhiy va esmotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish asosida o'quvchilar bilan munosabatga kirishish, ularni ergashtira olish, tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimni yaratish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga o'quvchilarda o'qituvchining imkoniyati va mahoratiga bo'lgan ijobiy bahoning shakllanishi dars samaradorligini ta'minlashning muhim omili ekanligiga doir yondashuvlar shakllanayotgan vaziyatda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining suggestiv kompetentligini oshirish muhim pedagogik vazifadir. Bundan ko'rinadiki, har bir jamiyatda ijtimoiy-psixologik muhitni sog'lomlashtirish, bo'lajak avlodni ham ruhan, ham jismonan sog'lom qilib tarbiyalash vazifasi ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning suggestiv kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning suggestiv

kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi va muammolari V.A.Slastenin, G.Chijakova, I.Ridanova, H.Abdukarimov, A.Mamajonov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, Sh.Sharipov, N.Shodiyev, Y.Haydarov, I.Martin, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braunlar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Suggestivlik – bu bir kishining boshqasiga psixologik ta'siri bo'lib bu jarayonda kishinig e'tiqodi qarashlari va qaroriga ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi. Uning ta'sirida kishi o'z motivatsiyasini yo'qotadi unga qaratilgan ta'sirni nazorat qilolmaydi. Kishining xotirjam xolatida va shu kabi mo'tadil sharoitda suggestia o'zining natijasini ko'rsatadi. Qo'zg'olish yuqori bo'lgan va yoki xavotirli xolatda subggestia qisqa bo'ladi. Turli kishilar turli darajadagi singdiruvchanlikka uni qabul qilishga singdiruvchi ta'sirga va unga bo'ysunishga nisbatan turli darajadagi imkoniyatga ega bo'ladilar. Pedagog singdirishga yordam beradigan asosiy omillarni bilishi zarur. Bular: ishonchsizlik, xavotir, notinchlik, o'z-o'ziga past baho berish, o'zini nomukammal his qilish, yuqori darajadagi emotsionallik, ta'sirchanlik, mantiqiy fikrlashning zaifligi, avtoritetlarga ishonish.

Suggestivlik pedagogik muloqotning asosi hisoblanadi. Pedagogik muloqot jarayonida ochiq singdirish (menga ishonib), (hozir o'zingiz ishon xosil qilasiz), shuningdek yopiq singdirish – ramzlar, tamoyillar, belgilar, xona jixozlari va shunga o'xshash ko'rish va hissiy ta'sirga ega bo'lgan vositalar yordamida singdirish. Umuman pedagogning muvofiqiyatli faoliyati uchun ko'rsatilgan muloqot modellarining barchasini egallagan bo'lishi va ulardan zarur o'rinlardan to'g'ri foydalana olishi kerak.

Shuning uchun ham pedagogik faoliyatda suggestiv kompetentligi juda zarur hisoblanadi. Shu o'rinda e'tirof etish joizki qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi xisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun yesa yana iste'dod, layoqat va zexn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi xam zarur.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida suggestiv kompetentligini rivojlantirish ularda o'z shaxsiyatini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Suggestiv kompetentligi pedagog va o'quvchining irodaviy sifatlarini namoyon bo'lishida ko'rinadi. Chunki irodaviy matonat suggestivlikning asosi hisoblanadi. Irodaviy sifatlar shaxsiyatning hayotiy tajribasining vujudga kelishi va orttirilishi jarayonida shakllanadi va har bir talaba, ota-ona va pedagog uchun muhim ahamiyatga ega amaliy vazifa hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning hozirgi kundalik hayotidagi va kelajakdagi hayoti davomida o'z shaxsiy fikri va prinsiplariga ega bo'lgan shaxs sifatida turli zararli odatlar va illatlardan (chekish, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar) o'zini saqlay bilish, o'quv va tarbiyaviy jarayonlaridagi mavjud bo'lgan qiyinchiliklarni murakkab vaziyatlarda yengib o'tish xususiyati har bir insonning irodaviy sifatlar tizimi qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'lganligi sababli ushbu vazifani hal qilish talabaning hozirgi va kelajakdagi o'quv jarayonining samaradorligi, uning doimiy ravishda tobora murakkablashib va kengayib borayotgan sinfdan tashqari to'garak faoliyatiga ham bevosita bog'liqdir.

Suggestiv kompetentlik asosida shakllangan xulq-atvor-maqсадga yo'nalganlik, o'zini o'zi nazorat qilish, vaziyat tug'ilganda u yoki bu harakatdan saqlanish, ya'ni o'z xulq-atvorini egallash hamdir. O'z xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyati voyaga yetgan shaxsning muhim xususiyatidir. "Shaxsiy xulq-atvorni egallaganidan keyingina biz shaxsning shakllanishi haqida gapirishimiz mumkin", deb yozadi L.S.Vigotskiy.

Suggestiv sifatlar bu – irodaviy tartiblashuvning xususiyati bo'lib, qiyinchiliklarni yengish bilan taqozolangan xarakterning aniq vaziyatda namoyon bo'lishidir. Rus olimi A.S.Punining fikricha, "... har bir insonning irodaviy sifatleri yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi, lekin turli shaxslarda, hatto, bir shaxsning boshqa xil faoliyat bilan shug'ullanishi natijasida ham irodaviy sifatlarining tuzilishi o'zgaradi. Shuning uchun irodaviy sifatlar o'zaro bog'lana oladigan, ta'sirlanadigan, harakatlantiruvchi, dinamik tizim sifatida ifodalanadi". Irodaviy sifatlar – bu qiyinchiliklarni yengishda shakllanadigan xarakter bilan bog'liq aniq vaziyatlarda namoyon bo'luvchi va shaxs xususiyatlariga aylangan irodaviy boshqaruvning o'ziga xos jihatidir. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning irodaviy sifatleri qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi matonatini anglatadi va bu aniq vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan jismolniiy ta'lim bo'lsa talabalarni aniq vaziyatlarda irodasini mustahkamlashga tayyorlaydi.

PEDAGOGIKA

Suggestiv kompetentlik bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining irodaviyligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iroda masalasi bilan yarim asr shug'ullangan yirik psixolog olim V.I.Selivanov irodani tadqiq etishning negizidan kelib chiqqan holda, shaxsiy tajribalari natijalariga asoslanib ayrim xulosalar ham chiqaradi: 1) iroda – bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifi; 2) iroda – bu inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakllari va bosqichlariga taalluqli; 3) iroda – bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxs tomonidan o'zini ongli idora qilishlik holati; 4) iroda – bu shaxsning hissiyoti va aqlzakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyati, lekin qaysidir harakatning motivi hisoblanmaydi. Boshqa bir olim V.A.Krutetskiy o'z izlanishlarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlilik, mustaqillik, qat'iyatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi. Ularning ta'rifiga, foydalanish imkoniyatiga, shakllantirish yo'l-yo'riqlariga to'xtalib o'tadi. P.M.Yakobson esa irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, o'zini uddalashga ajratadi.

Tadqiqotchi Y.P.Ilinning suggestivlik sifatlariga o'zining shaxsiy munosabati mavjud bo'lib, u o'ziga xosligi bilan boshqa psixologlar ta'rifidan ajralib turadi. Muallif tomonidan tuzilgan rangli jadvalda suggestivlikning tirishqoqlik sifati tartib qatorida chidamlilikdan keyin joylashtirilgan bo'lib, tirishqoqlikka qiyinchilik va muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, maqsadga erishish yo'lida uzluksiz ravishda intilishning paydo bo'lishi sifatida tarif beriladi.

Ilmiy izlanuvchi D.N.Ushakovning mulohazasiga qaraganda, "chidam" tushunchasi mana bunday ma'nolarni anglatib kelishi mumkin: 1) aksil harakatni amalga oshirmasdan, shikoyatsiz, hasratsiz, halokatli, mushkul, noxush hissiy holatlarni dildan kechirish; 2) aksil harakatni amalga oshirmasdan, balki o'zgarishlarni kutgan tarzda taqdir haziliga rozi bo'lishlik; 3) biror psixologik holatga muhtalolik; 4) nima bilandir kelishishlik, biror ortiqcha kechinmaga parvo qilmasdan, og'irchilikni muruvvatkorona o'tkazishlik; 5) imkon boricha barcha narsalarga amal qilishga ko'nikishlik; 6) shoshqaloqlikka yo'l qo'yimaslik; 7) paysalga solishga, kutishga imkoniyat yaratishlik. Fikrlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi D.N.Ushakovning mulohazalarida originallik, o'ziga xoslik yorqin namoyon bo'lmoqda, lekin unga ekspert bahosi berishning mavrudi emas.

Boshqa bir olim D.Pristli suggestiv iroda deb inson harakat qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilganidan so'ng hosil bo'luvchi intilish yoki istakni atashni taklif qiladi. Chunki istalgan predmet ko'z o'ngimizda bo'lsa-da, harakat qilish xohishi har doim ham vujudga kelavermaydi, buning uchun harakat qilish istagi bo'lishi shart. Bu intilish va harakatlar doimo motivlar tomonidan belgilab beriladi, oqibatda irodaning hamisha sababi bo'ladi degan hukmga keladi olim. V.Vindelbandt iroda tushunchasi ostida alohida istak va mayllarni o'zida mujassamlashtiruvchi voqelikni tushungan. Iroda o'z mohiyatiga ko'ra shaxsni tavsiflovchi, uning asosini tashkil etuvchi doimiy motiv (xohishistak) lar majmuasidir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadiki, suggestivlik insonning ichki quvvati asosida namoyon bo'ladigan chidami, tirishqoqligi va sabr-bardoshi hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida ham shunday suggestivlik sifatlarini rivojlantirish ulardagi pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarga zamin yaratadi.

XULOSA

Umuman olganda, suggestiv kompetentlik bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining o'quv faoliyati va xulq-atvorining sayqallanishi va chiniqishini anglatadi. Chunki suggestivlik inson faoliyati, muomalasi va xulq-atvorining muhim xususiyati, uning turmush mazmunini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Suggestivligi mustahkam, kuchli odamda maqsad bilan faoliyat, xulq-atvor izchilligi kuzatiladi. Shaxs oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga nisbatan ishonch tuyg'usi irodaning kuch-quvvati va bosh mezonidir. Zero, qat'iy ishonch maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga ham jismonan, ham ruhan asos yaratadi. Har bir shaxsda suggestiv irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Suggestivlik sifatlarini ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жўраев Ў.Т. “Иродавий фаолликнинг вазиятли ва шахслик детерминантлари” магистрлик диссертацияси Тошкент, 2016
2. Иванников В.А., Эйдман Е.В. Структура волевых качеств по данным самооценки // Психологический журнал. – Москва, 1990
3. Ильин Е.П. Психология воли. – СПб.: Питер, 2009
4. Хайриев Х. Ирода психологияси Тошкент, 2010
5. Ходжаев Б.Қ., Жураев Б.Т. Педагогик фаолиятга кириш. Монография. –Тошкент, 2019
6. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Тошкент, 2008